



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-98-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### **Angor tumani Adliya bo‘limi tomonidan davlat organlari va tashkilotlari tuman tuzilmalarida norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti holati yuzasidan tuman adliya bo‘limi boshlig‘ining axboroti to‘g‘risida**

Adliya bo‘limi tomonidan norma ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish hamda huquqiy targ‘ibot va ma’rifat sohasida 2023-yilning 3 oyida muayyan ishlar amalga oshirilgan. 2023-yilning o‘tgan davri mobaynida jami 198 ta targ‘ibot tadbirdari o‘tkazildi.

Shundan, mahalliy va markaziy televide niye orqali 9 marotaba, radio orqali 20 marotaba chiqishlar qilingan bo‘lsa, gazeta va jurnallarda 20 ta turli maqola risolalar bilan chiqishlar qilindi.

Qonunchilikdagi muhim yangiliklar aholiga qulay bo‘lishini ta’minalash maqsadida 144 nusxadagi plakat, buklet va flaerlar tarqatildi, elektron ommaviy axborot vositalarida 39 tadan ortiq targ‘ibot materiallari joylashtirildi.

Shuningdek, joylarda 92 ta ma’ruza, davra suhbat, seminarlar o‘tkazildi. 44 ta og‘zaki huquqiy targ‘ibotlar mahallalarda, 26 tasi ta’lim muassasalarida, 25 tasi mehnat jamoalarida hamda 11 tasi boshqa joylarda amalga oshirilib, ushbu tadbirdarda 1827 nafar tinglovchilar qamrab olindi. Shuningdek, bo‘limga kelib tushgan (elektron shaklda) 178 ta normativ-huquqiy hujjatlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotning tumandagi hududiy bo‘limlariga yetkazildi.

Adliya bo‘limi tomonidan ushbu yo‘nalish bo‘yicha 2023-yilning o‘tgan davrida 2 ta sohada o‘rganish amalga oshirildi.

O‘tkazilgan o‘rganish, tahlil va monitoringlar davomida davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari faoliyatida jami 152 ta qonun buzilishlar va huquqni qo‘llashda tizimli muammolar aniqlangan.

Aniqlangan qonun buzilishlarni bartaraf etish va qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan

shaxslarga nisbatan chora ko‘rish yuzasidan 19 ta taqdimnoma, vakolatli organlarga 9 ta ma’muriy takliflar kiritilgan.

Qo‘llanilgan ta’sir choralar natijasida 6 nafar shaxslar intizomiy javobgarlikka tortilgan va davlat organlari va tashkilotlarining 105 ta hujjatlari bekor qilingan.

Sohaga oid jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida 2 marta so‘rovnoma o‘tkazilib, so‘rovnomada 236 nafar shaxs ishtirot etgan.

2023-yilning o‘tgan davri mobaynida adliya bo‘limiga tuman hokimligi hamda xalq deputatlari Angor tuman Kengashidan 3 ta kelib tushgan normativ tusdagi qaror loyihalarining 3 tasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilib, tegishli ijobiy xulosalar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagи “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-89-sonli Farmoniga ko‘ra hozirgi kunda tuman adliya bo‘limi bo‘ysunuvida yuridik xizmat ko‘rsatish markazi, tuman davlat xizmatlari markazi va uning Xo‘janqon filiali hamda FHDYO bo‘limlari faoliyat olib bormoqda.

Bo‘limning davlat xizmatlari markazi tomonidan 2023-yilning o‘tgan davrida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga jami 10 944 tadan ortiq davlat xizmatlari ko‘rsatilishi ta’minlandi.

Shuningdek, bo‘limning FHDYO yo‘nalishida o‘tgan davr mobaynida 942 ta tug‘ilish qayd etilgan bo‘lib, ajrimlar soni 40 ta va 254 ta o‘lim qayd etilgan. Bundan tashqari FHDYO bo‘limi tomonidan fuqarolardan nikohga kirish uchun 204 ta ariza qabul qilinib tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun yo‘llanma berilib, 215 ta nikoh qayd etilishi ta’minlandi.

Bundan tashqari, tuman adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markaziga 2023-yilning o‘tgan davrida tumandagi davlat organlari va tashkilotlarining 5 585 ta hujjatlari “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali kelib tushgan.

Markaz tomonidan davlat organlari va tashkilotlaridan elektron tarzda kelib tushgan 4 686 ta buyruq loyihalarining 4 478 tasiga ijobiy xulosa berilgan bo‘lib, qolgan 208 ta buyruq loyihalarida kamchiliklari mavjudligi sababli qaytarilgan.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlaridan elektron tarzda kelib tushgan 117 ta shartnomaviy munosabatlarga oid hujjatlarning 103 tasiga ijobjiy xulosa berilgan bo‘lib, qolgan 14 ta shartnoma loyihalarida kamchiliklari mavjudligi sababli qaytarilgan.

Biroq, o'tkazilgan o'rganish va monitoringlar davomida ayrim davlat organlari va tashkilotlari hamda muassasalari tomonidan yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan qabul qilingan Prezident qarorini amalda

qo'llanilayotganiga ancha vaqt o'tgan bo'lsada, qarorda belgilab berilgan talablarga qat'iy rioya etishlari yuzasidan bir necha marotaba davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari hamda mas'ul xodimlariga tushuntirish yuzasidan targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan bo'lsada, biroq ayrim tashkilot rahbarlari va mas'ullarining mas'uliyatsizligi natijasida ularning hujjatlari (buyruq, qaror va shartnomalar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari bilan "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali kelishilmasdan qabul qilinganligi holatlari aniqlanmoqda.

Xususan, yuridik xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlarda o'tkazilgan monitoring davomida ayrim tashkilotlar tomonidan yuqorida qayd etilgan qaror talablariga zid ravishda yuridik xizmat ko'rsatish markazi bilan "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali kelishilmasdan 105 ga yaqin buyruqlar to'g'ridan-to'g'ri tuzib yuborilgan.

Mazkur holat yuzasidan tuman adliya bo'limi tomonidan umumta'lim maktablariga kiritilgan taqdimnomalarga asosan mazkur buyruqlar bekor qilinib, qonunga muvofiqlashtirilishi ta'minlandi.

Davlat organlari va tashkilotlari tuman tuzilmalarida norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati yuzasidan tuman adliya bo'limi boshlig'i G'. Tilovqobilovning axboroti eshitilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman adliya bo'limi boshlig'i G'. Tilovqobilovning 2023-yilning 3 oyida tumanda norma ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek huquqiy targ'ibot va ma'rifatning holati yuzasidan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

#### **2. Tuman hokim o'rinnbosarlari:**

- tuman hokimi va mahalliy kengash tomonidan qaror va farmoyishlarni "E-qaror" tizimiga kiritishdan oldin, ularning amaldagi qonunchilik talablari asosida ishlab chiqilganligini adliya bo'limi bilan kelishib olish masalasiga alohida e'tibor qaratsin.

- tuman hokimligi bosh yuriskonsulti (Ch.Xaliquov) adliya bo'limi bilan hamkorlikda tuman hokimligi xodimlariga yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish borasida har haftada targ'ibot tadbirlari o'tkazib borilishini ta'minasin.

#### **3. Tumandagi barcha korxona va tashkilotlar rahbarlari:**

- adliya bo'limi tomonidan o'tkazilgan o'rganish va monitoring tadbirlari davomida aniqlangan qonun buzilish holatlarini bartaraf etish va kelgusida ularga yo'l qo'ymaslik borasida tegishli chora-tadbirlar ko'rsin;

- o‘z sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish borasida adliya bo‘limi bilan o‘zaro hamkorlik o‘rnatib, sohadagi bo‘shliqlar va tushunmovchiliklarni bartaraf etish borasida qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan adliya bo‘limiga takliflar kiritib borsin;

- o‘tkazilayotgan tezkor yig‘ilishlarda yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini xodimlar e’tiboriga yetkazishga qaratilgan choralarni ko‘rib borsin.

#### **4. Tuman adliya bo‘limi (G‘.Tilovqobilov):**

- tuman aholisining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida yangi qabul qilingan qonun hujjatlarini o‘z vaqtida tegishli davlat tashkilotlariga yetkazish, ularning mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng xalq ommasiga tushuntirish borasidagi targ‘ibot tadbirlarini kuchaytirsin;

- o‘tkazilayotgan sayyor qabullar davomida tumandagi mahallalarga uyma-uy kirilgan holda fuqarolarning muammolarini o‘rganish va huquqiy tushuntirish berish masalalari bo‘yicha faoliyatini jonlantirish choralarini ko‘rsin;

- deputatlar faoliyatini samarali tashkil etish, Kengash faoliyatini huquqiy uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga amaliy yordam ko‘rsatib borsin.

5. Angor tumani yuridik xizmat ko‘rsatish markazi tomonidan yuridik xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlar rahbarlari ish faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5168-son qarori ijrosini so‘zsiz ta’minalash chorasini ko‘rsin.

5.1. Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi xulosasini olmasdan turib huquqiy tusdagi hujjatlarni qabul qilish amaliyotiga chek qo‘yilsin.

6. Tumanda yuridik va jismoniy shaxslarga sifatli davlat xizmatlari ko‘rsatishga ayniqsa, olis hududlarga chiqqan holda sayyor xizmatlar ko‘rsatishga yetarli e’tibor qaratilsin.

7. “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati va tuman hokimining matbuot xizmati (G.Jumayeva)ga tuman adliya bo‘limi bilan birgalikda yangi qabul qilingan qonun hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini gazetada va tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Xalimov), tuman adliya bo‘limi boshlig‘i (G‘.Tilovqobilov) zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**